



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

MUZEYLAR SHAKLLANISHIDA ME'MORCHILIKNING O'RNI, FUNKSIYASI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Palvanov Ravshanbek Qadambayevich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, "Arxitektura"
kafedrası mudiri

Annotatsiya

Bugungi kunda muzeylar muhim ijtimoiy hodisa bo'lib qoldi. Madaniy merosni o'rganish hozirgi paytda katta ahamiyat kasb etmoqda, chunki zamonaviy jamiyatda ma'naviy qadriyatlarga qiziqish yuksalib bormoqda. Milliy meros xalqning moddiy va ma'naviy madaniyati sintezi hisoblanib, birinchi navbatda, xalqning etnik o'ziga xosligi o'rganilishi kerak. Maqolada muzeylarning yoshlarni tarbiyalashdagi o'rni, ularning madaniyat va ma'rifat o'chog'i ekanligi haqida so'z yuritilmoqda. Bugungi muzeylar XX asrdagi muzeylardan ko'p jihatlari bilan farq qilishi ko'rsatildi.

Аннотация

Сегодня музеи стали важным социальным явлением. Изучение культурного наследия в настоящее время имеет важное значение, так как в современном обществе повышается интерес к духовным ценностям. Национальное наследие является синтезом материальной и духовной культуры народа и в первую очередь должно изучаться этническое своеобразие народа. В статье речь идёт о месте музеев в воспитании молодёжи, о том, что они являются очагами культуры и просвещения. Показано, что современные музеи многими аспектами отличаются от музеев XX века

Abstract

Today museums have become an important social phenomenon. The study of cultural heritage is currently of great importance, as interest in spiritual values is increasing in modern society. The national heritage is a synthesis of the material and spiritual culture of the people and, first of all, the ethnic identity of the people should be studied. The article deals with the place of museums in the education of young people, that they are centers of culture and enlightenment. It is shown that modern museums differ in many aspects from museums of the twentieth century.

Kalit so'zlar

muzey, tarbiya vositasi, maktab muzeyi, zamon va makon, virtual muzey, modernizatsiya, muzeologiya.

Ключевые слова

музей, средство воспитания, школьный музей, время и пространство, виртуальный музей, модернизация, музеология.

Keywords

museum, means of education, school museum, time and space, virtual museum, modernization, museology.

Kirish

Muzeylar insoniyatning madaniy merosi, tarixiy yodgorliklari va san'at asarlarini saqlash, namoyish etish hamda avlodlarga yetkazishda muhim o'rin tutadi. Muzeyning funksiyasi faqat eksponatlarni yig'ish bilan cheklanmaydi, balki uning me'moriy yechimi orqali jamiyatning madaniy darajasi, estetik qarashlari va tarixiy qadriyatlari ham ifodalanadi. SHu boisdan muzey me'morchiligi nafaqat binoning tashqi ko'rinishi, balki uning ichki makoni, ekspozitsiya tizimi va tashrif buyuruvchida uyg'otadigan hissiyotlar bilan ham uzviy bog'liqdir.

Asosiy qism

1. Muzey me'morchiligining ahamiyati.

Muzey binolari nafaqat eksponatlarni saqlaydi, balki ularni to'g'ri namoyish etish, tashrif buyuruvchida estetik zavq uyg'otish va madaniy tajribani boyitish uchun maxsus loyihalanadi. SHu bois muzey me'morchiligida quyidagi jihatlar alohida ahamiyatga ega:

Ekspozitsiya makoni – eksponatlarning yorug'lik, kenglik va tartib jihatidan to'g'ri joylashtirilishi;

Inter'er dizayn – ichki bezak, yorug'lik, rangoviy uyg'unlik va materiallar tanlovi;

Ekster'er yechimi – muzeyning tashqi ko'rinishi orqali jamiyatning madaniy va tarixiy qimmatini ifoda etish.

2. Muzey shakllanishida me'moriy yo'nalishlar.

Muzeylar turli davr va me'moriy uslublarga ko'ra shakllangan. Masalan:

An'anaviy uslubdagi muzeylar – tarixiy binolar asosida tashkil etilgan, milliy me'morchilik an'alarini aks ettiradi (masalan, Xivadagi Ichan-Qal'a muzey-qo'riqxonasi);

Zamonaviy muzeylar – minimalizm, futurizm va innovatsion texnologiyalarga asoslangan yangi arxitektura echimlari bilan ajralib turadi (masalan, Toshkentdagi "O'zbekiston tarixi" davlat muzeyi).

3. Muzey arxitekturasi va funksionallik uyg'unligi.

Muzeyning vazifasi faqat eksponat saqlash emas, balki tashrif buyuruvchi uchun qulay muhit yaratishdir. SHu sababli me'morlar quyidagi talablarga e'tibor qaratadilar:

Ekspонатlarni saqlashda harorat va namlikni nazorat qilish;

Tashrif buyuruvchilar uchun ergonomik yo'laklar, yo'nalish ko'rsatkichlari va dam olish maskanlarini tashkil etish;

Interfaol texnologiyalar, multimedia vositalari va yorug'lik echimlarini samarali joylashtirish.

4. O'zbekistondagi zamonaviy muzey me'morchiligi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda muzeylar me'morchiligiga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan:

"Temuriylar tarixi" davlat muzeyi – an'anaviy sharq me'morchiligi va zamonaviy uslub uyg'unligini namoyon etadi;

"O'zbekiston tarixi" davlat muzeyi – yangi texnologiyalar, keng ekspozitsiyalar va minimalistik arxitektura orqali farq qiladi;

Samarqanddagi "Eternal Samarkand" muzeyi – zamonaviy dizayn va milliy me'moriy elementlar uyg'unligida barpo etilgan.

Muzeylar jamiyatning madaniy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Muzey me'morchiligi esa nafaqat eksponatlarni saqlash va namoyish etish vazifasini bajaradi, balki tashrif buyuruvchilarda milliy g'urur, tarixiy xotira va estetik zavqni uyg'otadi. SHu sababli har bir yangi muzey loyihasi nafaqat texnik jihatdan, balki

milliy meros, zamonaviy dizayn va funksional talablar uyg'unligini hisobga olgan holda yaratilishi lozim.

Muzey nafaqat yoshlarni qidiruv, o'lkashunoslik ishiga jalb qiladigan o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilishning shakli, balki shu bilan birga ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik tarbiya vositasidir. Vatan, uning tarixiy o'tmishi, taniqli odamlari, ularning yutuqlari haqidagi bilimlarni integratsiya qilib, muzey madaniyat va ta'limning ajoyib bir fenomeni hisoblanadi. Muzey ochiq ta'lim maydonining bir qismi bo'lib, ta'lim muassasasining ma'naviy, vatanparvarlik faoliyatining koordinatori sifatida faoliyat yuritishi hamda oliy o'quv yurti, maktab va madaniyat muassasalari o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qilishi mumkin. Jamiyatni modernizatsiyalash va madaniyat qadriyatlarini transformatsiyalash sharoitlarida respublikamizda istiqomat qilayotgan xalqlarning madaniy merosini saqla sharoitlari va mexanizmlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunda muzeylar eng dolzarb omillardan biri hisoblanadi. Aynan muzeyning imkoniyatlari madaniyatdagi yuksak an'analarni saqlab qolishga imkon beradi, muzeyni ma'naviyat, ma'rifat va ta'limning markazi qiladi, unda etnos turmushi va faoliyatining muhim jihatlari haqidagi axborotni jamlaydi. Ma'naviy shaxsni tarbiyalashda muzey pedagogikasi va o'lka tarixini o'rganish asosiy rol o'ynashi kerak. Mazkur faoliyat muzeyda amalga oshirilishi mumkin. Bugungi kunda O'zbekistonda muzeylar nafaqat respublikamizning poytaxti Toshkent shahrida, balki viloyatlar markazlarida, oliy o'quv yurtlari qoshida, ayrim korxonalar, maktablar qoshida ham faoliyat yuritmoqda. Viloyatlarda tarixiy-o'lkashunoslik muzeylari viloyat tarixiga, etnologiyasiga bag'ishlangan. Ularda va maktab muzeylarida yosh avlod xalqimizning eng yaxshi an'analari ruhida tarbiyalanadi, o'tgan avlodlarning hayoti, turmush tarzi, mehnat va jangovar an'analari bilan tanishadi. So'nggi yillarda oliy o'quv yurtlari qoshida Qatag'on qurbonlari muzeylari tashkil qilindi. Muzeylarda bir qator tadbirlar: ekskursiyalar, ko'rgazmalar, tanlovlar, konferensiya va seminarlar tashkil qilinmoqda. Maktablardagi muzeylarda maktab tarixi, faxriy o'qituvchilar, eng yaxshi o'quvchilar, bitiruvchilar haqidagi xotiralar, albomlar jamlanadi.

SHuningdek, shahar va qishloqdagi eng keksa fuqarolar, turli xo‘jaliklar va korxonalar tarixiga oid materiallar to‘planadi. Muzey eksponatlarini to‘ldirish maqsadida, o‘quvchilar oilada saqlanib qolgan narsalar va buyumlarni, mehnat qurollarini, milliy kiyimlarni olib kelishlari mumkin. Albatta, maktab ota-onalar majlisida, mahallalarda muzey haqida suhbatlar olib borib, qanday eksponatlar muzey uchun qimmatli bo‘lishi mumkinligini tshntirish kerak bo‘ladi. Ayniqsa, o‘tgan ajdod-avlodlarning frontdan, surgundan yuborilgan xatlari, saqlangan gazeta va jurnal maqolalari, fotosuratlar qimmatli eksponat bo‘lib qolishi mumkin. Muzey bo‘lajak avlodlar uchun moddiy madaniyatga mujassamlantirgan ma’naviy madaniyatning bir qismini saqab qoladi. Maktab muzeyi o‘quvchilarni xalqning mehnat, oilaviy va jangovar an’analarida tarbiyalashga, ularda vatanparvarlik hissini tarbiyalashga, respublikamiz, shahar va qishloqning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga hissa qo‘shgan insonlarni xotirada saqlab qolish, ularni e’zozlashga, tarixiy va madaniy yodgorliklarni avaylab asrashga kompleks yondashuvni amalga oshirishga xizmat qiladi. Muzeydagi eksponat ijtimoiy-madaniy va tabiiy-ilmiy axborot tashuvchisidir, u madaniy va tarixiy qimmatga ega, milliy boylikning bir qismidir. Muzeylar mohiyat jihatidan ijtimoiy jamiyatning qismi bo‘lib, hamma vaqt jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar ta’siriga javob berishga majburdir. Jamiyat o‘zgaradi, unda muzeyning jamiyat bilan, ijtimoiy guruhlar va uning alohida a’zolari bilan o‘zaro aloqasining yangi ko‘rinishlari o‘rnatiladi. SHu bilan birga muzey ham o‘zgarib, uning ijtimoiy fnuksiyalari o‘zgaradi. Albatta, muzeyning avvalgi funksiyasi – saqlab qolish – o‘zining birlamchi ahamiyati va ma’nosini saqlab qoldi, ammo bugungi kunga kelib kolleksiyalarni shakllantirishning maqsadlari va usullari o‘zgardi. Masalan, ochiq jamiyatdagi demokratik qadriyatlarni shakllantirish funksiyasi ilgari, ya’ni sobiq sovet davrida hukmron bo‘lgan kommunistik ideallar va sovet turmush tarzi targ‘iboti o‘rnini egalladi. SHuningdek, muzeyning ta’lim-tarbiyaviy funksiyasi o‘zgardi. Hozirgi kunda bu funksiya asosan talabalar va maktab o‘quvchilariga nisbatan amalga oshiriladi. Fuqarolarning boshqa kategoriyalari uchun muzey – bu muzeyda saqlanayotgan ma’naviy qadriyatlar bilan tanishishdir. Muzeyning o‘sib kelayotgan

avlod bilan g'oyaviy-tarbiyaviy ishi o'rniga tarixiy o'zini o'zi anglashni tarbiyalash bo'yicha ishga aylantirildi. SHuningdek, muzeyning yangi ijtimoiy buyurtmalari paydo bo'ldi. Muzeyga tashrif buyurayotganlar respublikamiz tarixiga qiziqmoqda, shuning uchun muzeylar tarixiy ekspozitsiyasida O'zbekiston ijtimoiysiyosiy taraqqiyotini to'laqonli va ob'ektiv ko'rsatish zaruriyati tug'ildi. Bundan tashqari, muzey ma'lumotlari bazasining lokal kompyuter tarmog'ini yaratish, ilmiy-metodik va maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish, virtual ko'rgazmalar, 3D-loyihalar tuzish va ularni namoyish qilish kabi vazifalar birinchi o'ringa ko'tarildi. Ma'lumki, XX asrning 80-yillarida xorijiy muzeologiyada tijorat yondashuvi yo'nalishi targ'ib qilina boshladi. Muzey institut sifatida muzey faoliyati tushunchasi bilan almashindi, har qanday kolleksiya muzey deb e'lon qilinishi mumkin edi. 1990 yillarda amerikacha «ochiq muzey» tushunchasi paydo bo'ldi. Unga ko'ra, muzey avvalambor bo'sh vaqtni o'itkazish joyi bo'lib qoldi. Bundan so'ng muzey faoliyatiga brendingni joriy etish takliflari kiritildi. Brending – iste'molchilar ongida «firma tovari» timsolini yaratish yo'li bilan bozorni egallash va qo'lda saqlab qolish usulidir. Bunday yondashuv Rossiyadagi Ijevsk shahri uchun taklif qilindi. Bu shahar 2004 yilda 391 Povoljening madaniy poytaxti deb tanlangan edi. Udmurtiya – chuchvara vatani, degan brend taklif qilindi. Muzeylarning faol madaniy faoliyati shaharlarning tiklanishi va turistlarni jalb qilishning katalizatori bo'lishi mumkin. AQSHdagi Louell, Boston va boshqa shaharlar madaniyat sohasidagi loyihalardan to'la xonavayron bo'lgan hududlarga investitsiyalarni jalb qilish maqsadida foydalandilar. Muzey voqealari va aksiyalari yo'li bilan mahalliy aholi va turistlar jalb qilinadi, ijtimoiy missiyasi esa shahar siyosatini shakllantirishdan iborat bo'ladi. Bugungi kunda dunyoda virtual muzeylar saytlari ham ko'psonli bo'lib qolmoqda. Virtual muzeylarning paydo bo'lishi va ulari oliy va maktab ta'lim tizimiga faol joriy qilinishi o'qitishdagi katta sakrash hisoblanadi. Biroq virtual muzeylarning saytlari aniq va to'g'ri tuzilishi, bir qator mezonlarga mos kelishi zarur. Birinchidan, virtual ekspozitsiya reprezentativ va mazmunli bo'lishi, faktlarni to'g'ri aks ettirishi kerak. Aks holda tarix, davr, madaniyat va san'at haqidagi tasavvurlarda ham noto'g'ri

tushunish yuzaga kelishi mumkin. Ikkinchidan, foydalanuvchilarning har xil kasbiy va ta'limiy kategoriyalari uchun mos keladigan ko'p qatlamli bo'lishi kerak. Uchinchidan, intuitiv ijobiy interfeysga ega bo'lishi kerak, chunki suratlarning har qanday to'plami veb-sayt-muzey deb atalish huquqiga ega emas [2, s.32]. Muzeylarning virtual loyihasini yaratishga mas'uliyat bilan yondashish zarur.

Xulosa

Umuman olganda, bugungi vaziyat shuni ko'rsatmoqdaki, virtual muzeylar katta ta'limiy va ma'rifiy potensialga ega, hamda virtual muzeylar va internet resurslarni muvaffaqiyatli amalga oshirish tajribalari ko'p. Biroq bu loyihalar asosan yirik tashkilotlar tomonidan amalga oshirilib, faqat jahon ahamiyatiga ega bo'lgan muzeylarni qamrab oladi [3]. So'nggi yillarda etnomadaniy turizmga katta e'tibor berib, ochiq osmon ostidagi etnografik qishloq-muzeylarni tashkil qilishga katta e'tibor berilmoqda. Bizning respublikamizda ham turizmni rivojlantirish uchun katta ishlar amalga oshirildi. Davlatimiz rahbarining 2021 yil 19 iyundagi PQ-5150-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, barcha muzeylar faoliyatini Madaniy meros agentligining Muzeylarni rivojlantirish, yodgorliklarni muzeylashtirish va Milliy muzey fondi davlat katalogini yuritish boshqarmasi nazorat qiladi, muvofiqlashtiradi. Muzey rahbarlariga 2022 yil 1 maygacha zamonaviy san'at muzeylari (Museum of modern art) bo'yicha xorijiy ilg'ortajribalarni o'rganish, zamonaviy san'atni rivojlantirish choratadbirlarini belgilash yuzasidan topshiriqlar berdi. SHuningdek, 2022 yil 1 iyulgacha muzeylar faoliyatini keng targ'ib qilish maqsadida tajribali ekspert, mutaxassis va dizaynerlarni jalb etib har bir muzeyning «Museum brendbook»ini yaratish; Wikipedia — ommaviy ochiq ensiklopediyada har bir muzey bo'yicha 6 ta jahon tilida material joylashtirish; har bir muzeyning rasmiy veb-saytini zamon talabidan kelib chiqib, to'liq yangilash, ularning mobil ilovasini yaratish; Youtube, Facebook, Twitter va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda verifikatsiya qilingan holda muzeylarning akkauntlarini tashkil etish, yuritib borishlari shartligi ko'rsatib o'tildi [1].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muzeylar faoliyatida yangi qaror ijrosi / <https://yuz.uz/news/muzeylar-faoliyatida-yangi-qaror-ijrosi>
2. Лысикова Н.Р., Polyakova O.A. Virtualный музей в системе школьного образования. // Образование в современном мире. – 2016. - №11. – с.29-34.
3. YUdkina E.S. Prosветitelskie vozmozhnosti virtualnykh muzeev. // Vestnik nauchnoy assotsiatsii studentov i aspirantov istoricheskogo fakulteta Permskogo gosudarstvennogo gumanitarno-pedagogicheskogo universiteta. Seriya: Stadia historica jenium. 2020. №1(16). S. 222-230.

XIVA SHAHRI ICHAN QAL'A HUDUDIDAGI TURAR JOYLARNI RESTAVRATSIYA QILISH VA MEXMONXONAGA QAYTA JIXOZLASH BO'YICHA ILMIY AMALIY LOYIHA TAKLIFI

Bobojonov Anvarbek Raximberganovich

UrDU "Qurilish" kafedrasida o'qituvchisi

Setmamatov Maqsud Bekturdiyevich

UrDU "Arxitektura" kafedrasida dotsenti

Xudayberganov Bekzod Allaberganovich

Xorazm Ma'mun akademiyasi laboratoriyasi kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xiva shahridagi Ichan Qal'a hududidagi "Zargarlar" mahallasida joylashgan an'anaviy uy bo'yicha o'tkazilgan monitoring kuzatuv ishlari va uni saqlab qolish masalalari yoritilgan.

Аннотация

В статье приведены некоторые результаты мониторинговые натурные исследование и определение технического состояния традиционный жилого дома, которые находится в территории Ичан Кале махалле "Заргарлар", города Хивы.

Abstract

The article presents some results of a monitoring field study and determination of the technical condition of a traditional residential building located in the territory of Ichan Kala mahalla "Zargarlar", the city of Khiva.